

TILSHUNOSLIKDA GASTRONOMIK BIRLIKALAR TADQIQI

Raxmatilloyeva Feruza Nematilloyevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon va o‘zbek tilshunosligida gastronomiya leksikasiga oid amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumot beriladi. Oziq-ovqat asosida shakllangan xalq maqollarini o‘rganish shu xalqning madaniyati, urf-odati, tili hamda ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: glyuttoniya, gastronomiya, leksik birlik, madaniyat, mentalitet

RESEARCH OF GASTRONOMICS IN LINGUISTICS

Abstract. This article provides information about the work carried out in world and Uzbek linguistics related to the lexicon of gastronomy. It was analyzed that the study of folk proverbs formed on the basis of food is related to the culture, customs, language and social lifestyle of this nation.

Key words: gluttony, gastronomy, lexical unit, culture, mentality

ИССЛЕДОВАНИЕ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЛИНГВИСТИКЕ

Абстрактный. В данной статье представлена информация о работах, проводимых в мировом и узбекском языкоизнании, связанных с лексикой гастрономии. Проанализировано, что изучение народных пословиц, образованных на основе еды, связано с культурой, обычаями, языком и социальным образом жизни этого народа.

Ключевые слова: гастрономия, лексическая единица, культура, менталитет,

Dunyo tilshunosligida so‘nggi yillarda til va madaniyat munosabatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Xalq madaniy merosining muhim qismi sanaladigan paremalar, xususan, maqollar millat dunyoqarashining ifodasi hisoblanib, ularni turli jihatdan o‘rganish, lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarini ochib berish bugungi tilshunoslikda faollashmoqda. Ayni kunlarda maqollarni mavzuviy jihatdan guruhlab o‘rganish boshlangan bo‘lib, oziq-ovqat nomlari asosida shakllangan maqollarni keng tadqiqi ham tilshunoslikda muhimdir. Oziq-ovqat asosida shakllangan xalq maqollarini o‘rganish shu xalqning madaniyati, urf-odati, tili hamda ijtimoiy turmush tarzi bilan tanishish imkonini beradi. Ushbu mavzuga qiziqish, “glyuttoniya va gastronomiya” mavzusiga oid leksik birliklar ustida izlanish dastlab jahon tilshunosligida boshlangan. F.Gardafe, Xu Venying, Kara Killing va Skott, Brad Kessler, Leyns, Vendi va Romona Perez va boshqalar «food» («ovqat») konseptining badiiy matnlarda qo‘llanishini tadqiq qilganlar. Pamela Feber o‘zining “Food terminology as a system of cultural communication: Expressing sensory experience in several languages” tadqiqotida non

va guruch kabi oziq-ovqat kategoriyalarida madaniyatga xos bo‘lgan terminlardan foydalanishni o‘rganish uchun freymga asoslangan terminologiya nazariyasini korpus tahliliga bog‘lagan. Tadqiqotchi umumiy til korpusidagi non va guruch terminlarini tahlil qilishda Sandra Sisneros, Najat El Hachmi, Chimamanda Adichiye va boshqalarning romanlaridan foydalangan. Rus olimlaridan A.V.Olyanich, M.V.Undritsova, L.R.Yermakova, I.A.Derjavetskaya, N.P.Golovnitskaya kabilar glyuttonik diskursning leksik-semantik, pragmatik va lingvokulturologik muammolarini rus va ingliz tillari misolida qiyosiy tadqiq qilgan.

S.Edilov o‘zining “Функционально-семантическая характеристика названий пищи в чеченском языке”¹ deb nomlangan tadqiqot ishida chechen tilidagi taomlarning nomlarini birinchi marta leksik, frazeologik va paremiologik sathlarda tavsiflagan, ularning semantik xususiyatlarni har tomonlama tahlil qilgan, turg‘un birikmalarning semantik xususiyatlarini kompleks o‘rgangan. Shuningdek, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlab, ushbu so‘zlarning shakllanish manbalari, kelib chiqishi, qatlamlari, oshxona mahsulotlari nominatsiyasining asosiy usullari va so‘z yasash modellarini aniqlagan. Oziq-ovqat – taomlar inson hayotining ajralmas qismi bo‘lgani bois xalqimizda asrlar davomida iste’molda bo‘lgan taom nomlarini to‘plash va ularning leksik-semantik, tarixiy-etimologik, yasalish, qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish tilshunosligimiz oldida turgan muhim masalalardandir. Zero, insonlarning jamiyatdagi o‘rni, turmush tarzi, madaniy-maishiy darajasi qisman ularning tanovvuliga bog‘liq holda belgilanadi. Oziq-ovqat nomlari tilimizda qachon paydo bo‘lgan, ularning etimologiyasi, semantik tarkibi o‘z yoki o‘zlashgan qatlamga mansubligi kabi masalalar tadqiqiga bag‘ishlangan izlanishlar K.Shaniyazov, M.Qurbanova, K.Mahmudovlar, M.Xudayarova, G.Odilova, N. Ikromovalar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, M.Xudayarovaning “O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpog‘iston hududi materiallari asosida)”² nomzodlik dissertatsiyasida taom nomlarining leksik xususiyatlari o‘rganilgan. Ushbu ishda o‘zbek shevalaridagi hudud xalq an’naviy taom nomlari, shuningdek, shirinlik, qandolat nomlari lisoniy tadqiq etilgan hamda taom nomlarining tarixiy ildizlari yoritilgan, o‘zbek shevalaridagi yuzdan ortiq taom nomlari ilk marotaba tahlil qilingan, qadimiy taom nomlari xronologik tartibda o‘rganilgan, ayrim xalq marosimlarining taom nomi bilan atalishiga izoh berilgan, taom nomlarining qisqacha izohli lug‘ati tuzib chiqilgan, taom nomlarining hududiy tarqalishi belgilangan va kartada shartli belgilar yordamida ko‘rsatilgan, shuningdek, sohaga oid tadqiqotlarga tanqidiy yondashib, taom nomlarining etimologiyasiga oid yangi qarashlar belgilangan. Glyuttoniya sohasiga bag‘ishlangan yana bir tadqiqot G.Odilovaning “Xususiy diskurslar lingvomadaniy talqinining nazariyasi va amaliyoti (glyuttonik diskurs

¹ Z. Eliboyeva. Glyuttonik sohaga oid nazariyalar tahlili. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» ISSN: 2181-3906 2023

² M.Xudayarova, O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.f.n. dis... avtoreferati. -T.: 2008.

misolida)” nomli tadqiqot ishi bo‘lib, olima unda glyuttonik diskurs istilohi, uning menuy, retsept, taomnoma kabi janrlarining lingvistik xususiyatlarini aniqlagan, olamning milliy lisoniy manzarasini anglashda glyuttonik diskurs tahlilining ahamiyatini ochib bergen, ilk bor glyuttonik diskursning tarix, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika va boshqa sohalar bilan bog‘liqligini asoslagan hamda non, suv, bug‘doy, dasturxon, o‘choq kabi glyuttonik stereotiplarning genezisini isbotlagan, badiiy asarlardagi glyuttonik diskursni tarjimada qayta yaratish muammolarining nazariy va amaliy jihatlarini asoslab bergen, «menuy» – taomnoma hamda «retsept» ilk bor o‘zbek tilidagi glyuttonik diskursning mustaqil janri sifatida o‘rganib, kulinariyaga oid terminologik lug‘at yaratish tamoyillarini ishlab chiqqan, O‘zbekiston va AQSH, Britaniya restoranlari taomnomalarining lingvokulturologik tipologik va pragmatik xususiyatlarini asoslab bergen hamda O‘zbekistondagi xorijlik sayyoohlarga xizmat ko‘rsatuvchi restoran va oshxonalar uchun taomnoma va uning tarjimasini lingvistik va stilistik baholash mezonlarini yoritib bergen.³ O‘zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasini N. Ikromova⁴ o‘rgangan. U asosan Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini o‘z tadqiqtiga kiritgan.

Demak, “glyuttoniya va gastronomiya” sohasiga oid ishlar jahon va o‘zbek tilshunosligida bir muncha o‘rganilgan bo‘lsa-da, oziq-ovqat nomlariga asoslangan o‘zbek xalq maqollari hali tadqiqot obyekti bo‘lgan emas va bu mavzuni chuqr tadqiqqilish tilshunosligimiz oldida turgan masalalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Эрмакова Л.Р. Глюттонические прагматонимы и национальный характер (на материале русской и английской лингвокультур). –Белгород: 2011. –С.10-11.
- 2.Гулинов Д.Ю. Национальная специфика французской лингвокультурной сферы “гастрономия (переводческий аспект). Автореф. дис. ... канд. пед. наук. Екатеренбург, 2004. –С.3 (24)
- 3.М.Xudayarova, O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.f.n. dis... avtoreferati. -Т.: 2008
- 4.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.200.

³ Z. Eliboyeva .Glyuttonik sohaga oid nazariyalar tahlili. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» ISSN: 2181-3906 2023

⁴ Ikramova N. Uzbekskaya kulinarnaya leksika: Dis. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1983. – 168 s